

## 1-MAVZU: «SALOMLASHISH. TANISHUV»

### Mavzu bo'yicha lug'at.

Hello! – Salom!  
Hi! – Salom!  
Good morning! – Xayrli tong!  
Good evening! – Xayrli kech!  
Good night! – Xayrli tun!  
Good –bye! – Xayr  
Bye-bye! – Xayr  
What is your name? – Isming nima?  
My name is... – Mening ismim ...  
How are you? – Ishlaring qalay?  
I am fine! – Yaxshi!  
How old are you? – Necha yoshdasan?  
I am ... (five/six) – Men (besh/olti) yosh.  
Thank you – Rahmat!  
Please – Iltimos!  
Hands up! – Qo'llar tepaga!  
Hands down! – Qollar pastga!  
Jump! – Sakramoq!  
Turn around – Ortga burilmoq!  
Clap your hands! – Qarsak chaling!  
Stamp your feet! – Qadam tashlang!  
Run! – Yugurmoq!  
Go! – Bormoq!  
Close your eyes! – Ko'zlaringizni yuming!  
Girl – qiz.  
Boy – bola.

### 1- Dars

#### Ushbu darsda bolalar:

- 1) aholisi ingliz tilida gaplashadigan mamlakatlar haqida;
- 2) 3 ga qadar ingliz tilida sanashni;
- 3) ingliz tilida salomlashish va hayirlashishni;
- 4) savolga javob berishni «What's your name?», “My name is ... (Sardor).”
- 5) turli buyruqlarni tushunish va amalga oshirishni (“Hands up!”, “Hands down!”, “Jump!”, “Turn around”, “Stop!”, “Hop!”);
- 6) [ou], [p], [t], [d], [ɔ] tovushlarini o'rganadilar.

#### Ushbu dars uchun sizga kerak bo'ladi:

- 1) qo'lga kiyish mumkin bo'lgan qog'irchoq maymun;
- 2) Mikki-Maus, Piggy, Stepashki, Fili, Vinni-pux, Zumrad va Qimmat, kenguru tasvirli rasmlar;
- 3) ko'k fonda jigarrang qit'alarning taxminiy tasavvurlaridagi katta "xarita";

- 4) kiyimlarida [ou], [p], [t], [d], [ʌ] tovushlari tasvirlangan kartondan kesib olingan kulguli odamchalar;
- 5) sexrli qopcha.

### Darsning borishi

**Tarbiyachi:** Salom kichkintoylar! Mening ismim....! Siz bilan ingliz tilini birgalikda o'rganamiz. Keling oldin tanishib olamiz? Ismingiz nima?

*Bolalar ismlarini aytishadi.*

**Tarbiyachi:** Bu qanday til bo'ldi ingliz tili? Aytinglarchi menga, hozir qaysi tilda gaplashyapmiz? Ingliz tilidami?

**Bolalar:** Yo'q! Uzbek tilida!

**Tarbiyachi:** (*Zumrad va Qimmat rasmini ko'satadi*): Do'stlarimiz qaysi tilda gaplashadilar?

**Tarbiyachi:** To'g'ri, uzbek tilida, chunki *Zumrad va Qimmat* qahramonlarini O'zbekistonda yaratishkan. Mamlakatimizda odamlar uzbek tilida gaplashadilar. Lekin dunyoda boshqa mamlakatlar ham bor. Men sizlarga olib kelgan ajoyib xaritanga qarang. *This is a map*. Bu xarita. Bu erda turli mamlakatlar chizilgan, ko'k rangdagisi - okean, juda ko'p suv bor! Odamlar esa quruqlikda yashaydilar. Mana, turli mamlakatlar: Amerika, Angliya, Avstraliya. Ushbu mamlakatlarda bolalar va kattalar ingliz tilida gaplashadilar. Ammo bizning mamlakatimiz - Uzbekiston! Uzbekistonda odamlar uzbek tilida gaplashadilar.

*Bolalar xaritani ko'rishadi.*

**Tarbiyachi:** (*Mikki-Maus rasmini ko'rsatadi*): Bu kim bolalar?

**Bolalar:** Mikki Maus!

**Tarbiyachi:** Good! (Bu "yaxshi!" degani). Mikki-Maus haqidagi Multfilmlarni qaysi mamlakatda yaratishkan bilasizmi? Amerikada! Mikki-Maus aslida faqat ingliz tilida gapiradi. Bu kim?

*Tarbiyachi Vinni-puxni rasmini ko'rsatadi*

**Bolalar:** *Vinni-pux*

**Tarbiyachi:** Good for you! Vinni-Pux Angliyada yashaydi, Vinni-Pux do'stlari bilan qaysi tilda gaplashadi? uzbek tilidami ingliz tilidami?

**Bolalar:** Ingliz tilida!

**Tarbiyachi:** Very good! Juda yahshi!

*Kenguru rasmini ko'rsatadi.*

**Tarbiyachi:** Bilamanki, sizlar menga darhol bu hayvonni qanday nomlanishini aytasizlar. Kim biladi?

**Bolalar:** Kenguru!

**Tarbiyachi:** Very good! It's a kangaroo! Kenguru Avstraliyada yashaydi. U yerda ham ingliz tilida gaplashadilar.

Bizni mashg'ulotlarimizga kulguli odamchalar tashrif buyurdi ular ingliz tovushlari. Ularning hammasini familyasi bir hil English sounds (ingliz tovushlari), ismlari esa turli hil.

Mana birinchi odamcha (*[p] tovushli odamchani ko'rsatiladi*).

Bu kichkina odam, [p] - chunki har doim puf-puf etib puflaydi, u doimo biror narsadan norozi. Mendan keyin qaytaring [p]. Say after me [p]-[p]-[p]- [p].

Ikkinchi odamcha [t] (*[t] tovushli odamcha ko'rsatiladi*), u shodlanishni yaxshi ko'radi – uning tili yuqori va old tishlarga sakraydi va [t]-[t]-[t]-[t]deb aytadi. Keling shodlanamiz. Say after me [t]-[t]-[t]-[t].

Uchinchi odamni ismi - [d], chunki u tez-tez o'yinchoq mashinasini o'ynaydi, bunda ham tilini tepaga qo'yib, aytiladi [d]-[d]-[d]-[d]. Say after me [d]-[d]-[d]-[d]. (*[d], tovushli odamcha ko'rsatiladi*).

To'rtinchi odamchamiz hammani zeriktirib yuradi [ɔ]-[ɔ]-[ɔ]-[ɔ]. Say after me [ɔ]-[ɔ]-[ɔ]-[ɔ].

Beshinchi odamcha har doim hayratlanadi, har bir narsa unga qiziqarli ko'rinadi: [ou]-[ou]-[ou]. Keling biz ham hayratlanaylik [ou]-[ou]-[ou].

Bolajonlar qarang menda nima bor, bu sexrli qopcha, It's the magic sack. Ushbu sexrli qopcha ichida dugonam yashaydi. U yonimga Angliyadan kelgan va faqat ingliz tilida gaplasha oladi. Sizlarning yonizga bormoqchi bo'lib turganimda men bilan borishni iltimos qildi. Faqat u juda uyalyapti. Keling ko'zlarimizni yumamiz, keyin u paydo bo'ladi, faqat sizlar ingliz tilida uchgacha sanashingiz kerak: one, two, three! Demak, close your eyes! (ko'zlarimizni yumamiz).

*Bolalar ko'zlarini yumadi va uchgacha sanashadi.*

**Tarbiyachi** (*tezda maymunni qoliga kiyib oladi:*) One, two, three! Open your eyes! *Bolalar ko'zlarini ochishadi.*

**Maymuncha:** Hello!

**Tarbiyachi:** Bolajonlar bu kim? It's a Monkey. Bu maymuncha. Oh, hello, Monkey, good to see you! (buni men aytdim: "Salom, maymun, seni ko'rganimdan xursandman!"). Kelinglar maymuncha bilan ingliz tilida salomlashamiz «Hello, Monkey!»

**Bolalar:** Hello, Monkey!

**Tarbiyachi:** Maymuncha sizlar bilan tanishishni xohlayapti. Ahir u sizlarning ismlaringizni bilmaydiku. U sizlardan ismlaringizni so'raydi. What's your name? (Ismingiz nima?) sizlar esa ismlaringizni aytasizlar, shunday qilib tanishib olasizlar. *Tarbiyachi va maymuncha har bir bolani yoniga borib kichik suxbat o'tkazadi.*

**Maymuncha:** Hello! My name is Monkey. What is your name?

**Bolalar:** My name is...

*Bolalar maymuncha bilan tanishadilar.*

**Tarbiyachi:** Bolalar, maymuncha menga nimadir aytishni xohlayapti (maymuncha Tarbiyachining qulog'iga shivirlyaydi) A tushunarli. Maymuncha sizlarga ingliz mashqlarini namoyish etishni istayapti. Hohlaysizlarmi?

**Bolalar:** Ha!

*Maymun Tarbiyachiga qaraydi*

**Tarbiyachi:** Bolajonlar, maymuncha tushunmadi, mashqlarini ko'rishni xohlaysizmi yo'qmi. Kelinglar inglizchada aytamiz «Yes!» («Ha!»)

**Bolalar:** Yes!

**Tarbiyachi:** Kel, maymuncha men senga ingliz mashqlarini aytaman, sen esa bajarasan.

Hands up! Hands down!

Jump! Jump!

Turn around!

One, two, three, hop! (*Ushbu so'zlar davomida bir oyoqda sakrash kerak.*)

One, two, three, stop!

**Tarbiyachi:** Ushbu mashqlar yoqtimi? Keling, buni birgalikda bajarishga harakat qilamiz. Faqat maymunchamiz charchab qolipti. Ahir u uzoq yo'l bosib Angliyadan keldiku. Maymuncha, yotib uhla, dam ol. Biz esa bolalar bilan asta-sekin ingliz mashqlarini bajaramiz. Har ehtimolga qarshi bolalarga «Ko'rishkuncha» deb ayt («Good-bye!»).

**Maymuncha:** Good-bye, kids!

**Tarbiyachi:** Va sizlar, faqat ingliz tilida maymunchamiz bilan xayrlashinglar.

**Bolalar:** Good-bye, Maymuncha!

*Tarbiyachi maymunni qopchaga solib qoyadi*

**Tarbiyachi:** Shunday qilib, maymuncha uyg'onmasligi uchun, keling, ingliz mashqlarini ohistalik bilan qanday bajarish kerakligini bilib olamiz va kelgusi safar bizga Maymuncha tashrif buyurganda, u qanday qilib buni bilib olganimizdan hayratda qoladi.

*Bolalar mashqlarni bajarishadi «Hands up! Hands down!...»*

**Tarbiyachi:** Ana endi bolajonlar bu mashqlarni mensiz bajarishka harakat qilib ko'ringlar.

*Bolalarning o'zlari mashqlarni bajarishadi Tarbiyachi esa ingliz tili so'zlarini aytadi, agar bironta bola unutib qo'ysa, Tarbiyachi unga qanday bajarish kerakligini ko'rsatib beradi.*

**Tarbiyachi:** Good for you! («Barakalla»). Bugun ko'p qiziqarli narsalarni bilib oldik. Maymuncha qayerdan keldi? U qaysi tilda gapiradi? Va yana qaysi davlatlar ingliz tilida so'zlashadilar? Ingliz tilida qanday salomlashib hayrlashadilar? Good-bye!

## 2 - Dars

### Ushbu darsda bolalar:

- 1) 4 ga qadar ingliz tilida sanashni;
- 2) «Glad to see you!» so'z birikmasini;
- 3) suhbatdoshning ismini so'rashni «What's your name?»;
- 4) savolga javob berishni: «What's your name?», «Who are you?», «I'm ... (Sanjar).» tuzilishidan foydalanishni;
- 5) nima qilishlari haqida xabar berishni;
- 6) «What can you do?», «Can you ... (run)?»; so'roqlariga javob berishni
- 8) Tarbiyachini turli buyruqlarini bajarishni: «Clap your hands!», «Stamp your feet!», «Touch your ears!», «Touch your cheeks!», «Shake your hands!», «Smile!», «Run!», «Go!», «Jump!», «Hop!»
- 9) [r], [dʒ], [ai], [h] tovushlarni o'rganadilar.

### Ushbu dars uchun sizga kerak bo'ladi:

- 1) qog'irchoq maymuncha;

- 2) «Clap your hands» qoshig'i yoki bironta harakatli qoshiq;
- 3) bir oyoqda sakrayotkan, yugurayotkan, sakrayotkan bolalarni yoki xayvonlarning suratlari;
- 4) tovushli kulguli odamchalar.

### Darsning borishi

**Tarbiyachi:** Hello, everybody! Hello, kids! Salom Bolajonlar! I'm very glad to see you! Sizlarni ko'rganimdan juda hursandman! Let's begin our English lesson. Keling ingliz tili darsimizni boshlimiz. Oh, but where's Monkey?

Aytqancha, Maymunchamiz qayerda ekana? Balki usiz boshlarmiz. Esladim, bugun ertalab sizlarni yoningizga chiqishka uyalayotkanini aytqandi. Kelinglar u qo'rqmasligi uchun ko'zlarimizni yumib 4 gacha sanaymiz. Close your eyes and count: one, two, three, four!

**Bolalar** (*ko'zlarini yumishadi*): One, two, three, four!

*Tarbiyachi tezda maymunni qoliga kiyib oladi*

**Maymuncha:** Hello, kids!

**Bolalar:** Hello, Monkey!

**Maymuncha:** Glad to see you.

**Tarbiyachi:** Bolajonlar Maymuncha sizlarni ko'rganidan hursand ekanligini aytyapti, glad to see you. Maymuncha, bolalarning ismlarini unutmadimgmi? Do you remember the kids' names, Monkey? Hozir tekshiramiz.

*Maymuncha bolalarning yonlariga borib avval ismlarini no'tog'ri aytadi, keyin eslaydi.*

**Maymuncha:** Are you Ahror?

**Tarbiyachi:** Sen ahir Ahror emassanku, unga: «No, I'm not». deb ayt.

**Bola:** No, I'm not.

**Maymuncha:** Are you Sarvar?

**Tarbiyachi:** Sen Sarvarsan unga: «Yes, I am» (Ha, Sarvarman). deb ayt

**Bola:** Yes, I am.

*Qolgan bolalar bilan ham huddi shunday suhbatlashadi.*

**Tarbiyachi:** Bolajonlar kelinglar Maymunchaga ismlarimizni aytamiz. Har birimiz «I am .....». so'ziga ismlarimizni qo'yib aytamiz.

*Bolalar ismlarini aytishadi.*

**Tarbiyachi:** Ana endi Maymuncha ismlarimizni bilib oldi. Birgalikda «Hello!» o'yinini o'ynaymiz. Let's play!

*Bolalar Tarbiyachi va maymuncha «Hello!» o'yinini o'ynashadi.*

**Tarbiyachi:** Ajoyib, juda yahshi o'ynadinglar kelinglar qarsak chalamiz. Clap your hands!

*Bolalar qarsak chalishadi.*

**Tarbiyachi:** Bolajonlar hushchaqchaq Englishsounds odamchalar yana shu yerda. Jim! Tovushlarni eshiting?

Bu odamcha Ko'zgu va oynalar yonida shunday nafas oladi [h] - [h] - [h] - [h] va barmoqlari bilan harflarni yozadi. Uni shunday nomlashadi [h], uni ismi shunchaki yengil nafas. Tasavvur qilyapsizlarmi shunday qiyin ismni. Kelinglar birgalikda talafuz qilamiz. Say after me [h] - [h] - [h] - [h]. Keyingi Englishsound odamchamiz hammadan qo'rqadi. Eshik ochilsayam, it hursayam odamcha baqiraveradi [ai]. Say

after me [ai] - [ai] - [ai] - [ai]. A bu Englishsound odamchamiz esa boshqalarni qo'rqitishni yahshi ko'radi, u o'rmondagi ayiqqa o'hshab tovush chiqaradi [r] - [r] - [r] - [r].

**Tarbiyachi:** Bolajonlar, Maymuncha menga nimadir demoqchi.

*Maymuncha Tarbiyachini qulog'iga shivirlaydi.* A, tushunarli, I see. Maymuncha sizlarga do'stlarini rasmlarini ko'rsatmoqchi ekan.

*Maymuncha yugurayotkan, sakrayotkan bolalarni va hayvonlarni suratlarini oladi*

**Tarbiyachi** (*rasmlarni ko'rsatadi*): Well, Monkey, let's see your pictures. Ho'sh, Maymuncha, qani rasmlarini ko'raylikchi. O'-o' do'stlaring juda tez yugurishar ekan!

**Maymuncha:** They can run, and run, and run.

**Tarbiyachi:** Ular sakray olishadiyam.

**Maymuncha:** They can jump, and jump, and jump.

**Tarbiyachi:** Va yura olishadi.

**Maymuncha:** They can go, and go, and go.

**Tarbiyachi:** Bir oyoqda sakray olishadi!

**Maymuncha:** They can hop, and hop, and hop.

**Tarbiyachi:** Hato kulishadi!

**Maymuncha:** They can smile, and smile, and smile. I can do it all, too!

**Tarbiyachi:** Maymuncha bularni men ham bajara olaman deyapti. Qani bizga ko'rsatsinchi, qanday baja olishini. Ok, Monkey, what can you do?

**Maymuncha** (*yuguradi, sakraydi, yuradi va x.k.*): I can run. I can jump. I can go. I can clap my hands. I can touch my ears. I can touch my cheeks.

**Tarbiyachi:** Great! ajoyib Maymuncha, qani qanday bajara olarkansan. Bolajonlar kelinglar Maymuncha bilan o'yin o'ynaymiz. Unga aytamiz u esa bajaradi. Maymuncha, will you?

**Maymuncha:** OK.

**Tarbiyachi:** Monkey, run!

*Maymun qimirlamaydi.*

**Tarbiyachi:** Qiziq, ahir unga: «Monkey, run!», «Maymuncha, yugur!» dedimku u esa yugurmayapti. Bolajonlar sizlar bilmaysizlarmi? Aaa, toptim ahir unga iltimos qilmapmanku. Unga iltimos maymuncha yugur deyishimiz kerak ekan. Inglizchasini aytamiz. Monkey, run please.

*Maymuncha stol atrofida yuguradi.*

**Tarbiyachi:** Monkey, jump, please. Monkey, hop, please. Monkey, turn around, please. Monkey, please, clap your hands. Monkey, please, stamp your feet. Monkey, hands up, please. (*Maymuncha buyruqlarini bajaradi.*)

Bolajonlar kim Maymunchaga yana mashqlarni bajartirishni hohlaydi?

*Bolalar Maymunchaga buyruq berishadi.*

**Tarbiyachi:** Good for you, kids. Barakalla bolalar hozir siz qanday qilib maymunlarni o'qitishni o'rgandingiz. Siz ularni chopish, sakrash va aylantirish, qo'llarini ko'tarish va tushirishga o'rgatishingiz mumkin, bir oyog'ida sakrash. Maymuncha bilan birgalikda mashq bajaramiz va barcha harakatlarni takrorlaymiz.

Hands up, hands down

Jump, Jump,

Turn around.

One, two, three, Hop!

One, two, three, Stop!

Bolajonlar, o'ynashni yoqtirasizlarmi? Hohlasangiz birgalikda o'ynaymiz, together. Menda bir quvnoq qo'shiq bor kelinglar uni tinglaymiz va men sizlarga qanday o'ynash kerakligini ko'rsataman. Maymuncha esa shu yerda o'tirib bizni tomosha qiladi. Tarbiyachi „Clap your hands“, qoshig'ini qo'yadi va qo'shiq so'zlariga mos holda oddiy harakatlarni bajaradi.

**Tarbiyachi:** Ana endi bolajonlar, birgalikda bajaramiz, let's dance together.

Kelinglar birgalikda o'ynaymiz! Stand up! Look at me and do the same:

Clap, clap, clap your hands,

Clap your hands together,

Clap, clap, clap your hands,

Clap your hands together.

Stamp, stamp, stamp your feet,

Stamp your feet together,

Stamp, stamp, stamp your feet,

Stamp your feet together.

Touch, touch, touch your ears,

Touch, touch, touch your ears,

Touch, touch, touch your ears,

Touch your ears together.

Touch, touch, touch your cheeks,

Touch, touch, touch your cheeks,

Touch, touch, touch your cheeks,

Touch your cheeks together.

Shake, shake, shake your hands,

Shake, shake, shake your hands,

Shake, shake, shake your hands,

Shake your hands together.

Smile. Smile at your friends

Let you smile together!

**Tarbiyachi:** Well-done, kids. Juda yahshi, Bolajonlar buni yahshi o'zlashtirdingiz.

Did you like this song? Qoshiq yoqdimi sizlarga? Did you like to dance? Raqsga tushishchi? Keyingi darsimizda biz yana raqsga tushamiz. Hozir esa darsimizni yakunlaymiz! It's time to say: "Good-bye".

**Maymuncha:** Good-bye, kids!

**Tarbiyachi:** Good-bye!

**Bolalar:** Good-bye!

Ushbu konspektning *to'liq va fondagi yozuvlarsiz* variantini olish uchun Telegramdan **@hasanboy\_uz** yoki +99891 180 0985 raqamiga telegram orqali xabarar yozing

Konspekt narxi barcha materiallar bilan

**Narxi 50 000 so'm**

To'lovlar **click, payme** yoki paynet\* orqali (*tel nomerga emas*)

**DIQQAT!** Bog'lanish faqat telegram orqali! Telefon qilinganda yoki SMS yozilganda javob bermasligim ehtimoli yuqori

hasanboy.uz